

TA'LIM JARAYONIDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI

Andijon viloyati Andijon shahar Maktabgacha va maktab bo'limiga qarashli

5 - umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Xurboeva Shahnoza Ma'rufjonovna

Annotatsiya: *Ushbu maqolada didaktika haqida, ta'lim jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanish, didaktik o'yinlarning tuzulishi, o'tkazilish qoidalari va didaktik o'yinlarning bir nechta turi ko'rsatib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *ta'lim, qadriyat, zamonaviy madaniyat, didaktika, syujetli-rolli o'yin, o'yin-mashqlar, Dinamo o'yini.*

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy sohadagi islohotlar ta'lim tizimida ham yangilanishlar bo'lishini taqozo etmoqda. Ta'lim islohotlaridan asosiy maqsad- xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan va texnika, texnologiyalarning yutuqlari asosida shaxsning ma'naviy sifatlarini tarbiyalash va rivojlantirishdan iborat.

Ta'lim- tarbiya tarixi boy ma'naviy merosga ega bo'lib, uni o'rganish va ta'lim iste'moliga kiritish kadrlar tayyorlash milliy modelida ko'rsatilganidek, hartomonlama barkamol insoni tarbiyalash va rivojlantirishda, ma'naviy sifatlarni tarkib toptirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim - tarbiya jarayonining shakl va mazmunini hamda uslublarini tadqiq etuvchi ilm-fan bu didaktikadur. [Didaktika- ta'lim nazariyasi tushunchasini anglatadi. Ta'lim nazariyasi ta'lim- tarbiya jarayonida amal qilinishi shart bo'lgan tamoyillar, ta'lim usullari, ta'lim-tarbiya shakllari va pedagogikadagi asosiy tushunchalarni o'z ichiga oladi.]² Demak, didaktika yosh avlodni “nimaga o'qitish?”, “nimani o'qitish?”, va “qanday o'qitish?” kabi savollarga javob beradi. Didaktika o'qitishning umumiy qonun va qonuiyatlarini aniqlab berish bilan birga, har bir o'quv fanining o'qitish usullari uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Didaktika – grekcha soʻz boʻlib, “didasko” yaʼni “oʻqitish”, “oʻrgatish” maʼnolarini bildiradi. Taʼlim qonuniyatlarini oʻrganish, tahlil qilish jarayonida taʼlim tushunchasi uning mohiyati, mazmuni va vazifalari, oʻqitish prinsiplari, shakllari haqida bilimlar bayon etiladi.

Taʼlim- insoniyat tajribasining maʼlum tomonlarini, yaʼni oʻquvchilar ijtimoiy taraqqiyotining hozirgi talablariga muvofiq darajada bilim va tarbiyaga ega boʻlishlarini taʼminlaydigan faoliyatdir. Oʻqituvchi taʼlim jarayonida faqat bilim berish bilan chegaralanmaydi, balki bu jarayonda oʻquvchi talabaga taʼsir koʻrsatadi, bu esa ularning bilim olishlarini yanada faollashtiradi, natijada oʻquvchi taʼlim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi.

Taʼlim jarayoni- maʼlumot mazmuni hamda unga oid faoliyat usullarini oʻquvchilarning oʻzlashtirishi uchun oʻqitish va oʻqish faoliyatlarining real aloqalashuvi, sababiyatli bogʻlanishi, bir-biriga muvofiqlashuvi asosida taʼlimning aktlar, zvenolar, sikllar shaklida makon va zamonda harakatlanadigan maqsadga muvofiq shirkat faoliyatidir.⁴ Didaktika butun pedagogik faoliyat uchun, yaʼni taʼlimtarbiya bilan shugʻullanuvchilarning nazariy va amaliy harakatlari uchun metodologik asos vazifasini oʻtaydi. Taʼlim va oʻqitish mazmunining nazariy masalalarini, uning shakli va uslublarini pedagogikaning bir qismi boʻlgan didaktika oʻrganadi. Umuman pedagogika singari didaktika ham rivojlanadi. Uning rivojlanishiga Yan Amos Komenskiy hissa qoʻshdi. “Buyuk didaktika” asari oʻqitishni rivojlanishiga katta taʼsir koʻrsatdi. Didaktikaning tadqiqot obʼekti taʼlim-tarbiya jarayonidir.

Ruslardan didaktikaning asosiy atoqli namoyandasi K.D.Ushinskiy boʻlgan. U ham oʻqish masalalarini chuqur psixologik asosini yaratdi. Oʻzbek xalqi orasida ham H.H.Niyoziy, A.Avloniy kabi pedagoglar yetishib chiqdi. Didaktikaga asoslangan holda oʻqituvchilar oʻquvchilarga bilim beradi. Taʼlimjarayonida turli usullardan foydalanishadi. Dars turini toʻgʻri va muvaffaqiyatli oʻtish uslubini toʻgʻri tanlasa, didaktik oʻyinlar bilan olib borilsa dars yaxshi natija beradi.

Didaktik oʻyin – oʻquvchilarga bilim berish maqsadida qoʻllaniladigan oʻyin turi boʻlib, unda bor taʼlimiy maqsad oʻyin shakli orqali amalga oshiriladi. Didaktik oʻyin darsning umumiy maqsadlariga boʻysundiriladi.va maʼlum bir qonun-qoida asosida

o'tkaziladi. Bunday o'yinlardan o'quv materialini o'zlashtirishda, mustahkamlashda, chuqurlashtirish va takrorlashda foydalaniladi. Didaktik o'yinlardan foydalanishdan maqsad – bola uchun tabiiy bo'lgan o'yin vositasi orqali ma'lum bir ta'limiy vazifalarni amalga oshirishdir. O'yin orqali birinchi navbatda bolalarning bilishga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish ko'zda tutiladi. Didaktik o'yinlarning asosiy mohiyati shundaki, biror vazifani hal qilish bolalarga o'yin tariqasida topshirilsa, bu bolalarni qiziqtiradi, beixtiyor diqqatini jalb etadi, natijada ular ko'tarinki ruhda va faol jarayonda bu vazifani bajaradilar. Demak, didaktik o'yin dars jarayonida o'ziga xos ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalarni bajaradi

Didaktik o'yinlar tuzulishiga ko'ra 2 asosiy guruhga bo'linadi:

1. Syujetli-rolli o'yin

2. O'yin mashqlar. Syujetli-rolli o'yin biror syujetga asoslanadi, rollarga bo'linadi, o'yin xarakteri va qoidasi bo'ladi. O'yindagi o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatiga ko'ra o'yinlarni bir necha turga ajratish mumkin:

1. O'quvchi faqat ijrochi sifatida qatnashadigan o'yinlar: bunda o'quvchilar namunada ko'rsatilgandek harakat qiladilar. Masalan : “Fazogir” o'yini kabi.

2. O'tilgan bor mavzuni esga olib, takrorlashni talab qiladigan o'yinlar.

3. Biror bir narsani o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan o'yinlar. Bunday o'yinlarda o'quvchilar berilgan masala va misolni ularga mantiqiy bog'liq bo'lgan boshqa masala va misol bilan almashtiradilar.

4. Izlanish va ijodiy talab qiluvchi o'yinlar 4-guruhga kiritiladi. Bunday o'yinlarda o'quvchilardan topqirlik, mustaqillik, ijod qilish kabilar talab etiladi.

Didaktik o'yinlarni o'tkazish qoidalari. Didaktik o'yinlarni tanlashda o'quvchilarga bilim va tarbiya berishning quyidagi tartib –qoidalariga rioya qilinadi:

1. Didaktik o'yinlarni tanlash va ulardan foydalanishda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, pedagogik jihatdan tayyorgarligi va bilim saviyasi hisobga olinadi.

2. Tanlangan har bir o'yin o'quvchilarga sistemali bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish bilan birga ularning barkamol bo'lib yetishishiga va ruhan tetik o'sishiga qaratilgan bo'ladi.

3. Didaktik o'yinlarni tanlashda ta'limning aniq maqsad va vazifalari asos qilib olinadi. Didaktik o'yinlar ta'lim mazmunini aniqlashtirishning muhim vositalaridandir. U o'quvchilarda o'qish motivini, istagini rivojlantirishga xizmat qiladi.

4. Didaktik o'yinlarni tanlashda ta'lim jarayoning samaradorligini oshirishda, o'quvchilarning faolligini, tashabbuskorligi va ijodiy qobiliyatini o'stirishga, alohida ahamiyat beriladi. Har bir o'yin o'quvchilar uchun ularni mustaqil fikrlashga, his-tuyg'ularini rivojlantirishga da'vat etuvchi vosita ham bo'lib xizmat qilishi kerak.

5. Didaktik o'yinlarni tanlashda har bir sinfning kuchi, imkoniyatlari, o'ziga xos xususiyatlari, maktabning shart-sharoitlari, o'qituvchi va sinf xonasi imkoniyatlari ham hisobga olinishi kerak. Chunki, biror sharoitda yoki sinfda yaxshi samara bergan o'yin boshqa sharoit yoki sinfda kutilgan natijani bermasligi mumkin. O'qituvchi bolalar ma'naviy dunyosini yangi va qiziqarli o'yinlar bilan boyitib boradi. Bolalarning o'yinga bo'lgan qiziqishlaridan foydalanib, ularning qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin. Didaktik o'yinlar, o'qituvchini bolalarga yaqinlashtiradi, o'qituvchi bolalar nazarida tarbiyachigina emas, balki chinakam do'stga ham aylanadi. Bu esa ayniqsa dastlabki kunlarda yuz beradigan yotsirash hollariga barham beradi. Shunday qilib, o'yinlar bolalarda o'qituvchi va o'qishga nisbatan ijobiy munosabat paydo qiladi. Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'tkaziladigan o'yinlar bolalarning bo'sh vaqtini samarali o'tkazish vositasidir. «Bo'g'inlar», «Sanayver», «Qiziqarli kvadratlar» kabi o'yinlardan esa qo'shimcha mashg'ulotlarda unumli foydalaniladi.

Domino o'yini Ushbu o'yin o'quvchilarning so'z tarkibi yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlash va amaliyotga tadbiq etish ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida o'tkaziladi. Domino o'yinini o'tkazish uchun so'z yasovchi qo'shimcha yordamida tuzilgan yasama so'zlar (negizlar) ishtirokida so'zlar zanjiri tuziladi Buning uchun o'quvchilarga bitta yasama so'z beriladi. O'quvchilar guruhlar bo'yicha galma-galiga negizlar ishtirokida zanjirni davom ettiradi. Davom ettirilmay qolgan guruh yengilgan hisoblanadi. 1. Rejali-ibratli-intizomli-ilimli-ishli-tuzli-shakarli-suvli-qorli... 2. Ilmli-ishchan,-naychi-ilmoqli-ishla-arrasiz-zotli-rubobchi... 3. Sinfdosh-shovilla-a'lochi-inqilla-aqlli-ishli-ijodkor-randala-anjirli ilmoqdor... Biz didaktik o'yinlarni bitta fanga emas, balki, barcha fanlarda o'qituvchining bilim va malakasidan foydalangan holda

ishlab chiqish yoki tayyor o'yinlardan foydalanishimiz mumkin. Bular o'quvchining bilim olishiga yanada ko'maklashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A *O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.*-T: O'zbekiston, 1997, -B.137
2. Бўри Зиёмуҳаммадов “Педагогика” Тошкент-2006
3. X.Ibragimov, Sh.Abdullayeva. *Pedagogika nazariyasi Toshkent-2008,-B.*
4. O.R.Roziqov va boshqalar. *Didaktika.T., “Fan”, 1997, 111-bet.* 5. Bikbayeva N.V. *Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi Toshkent.:O'qituvchi,*